

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05
RAQAMLI ILMY KENGASH**

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ADAMBAYEVA FERUZA RUSTAMBEKOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA BIOTEXNOLOGIYAGA OID
TERMINLARNING STRUKTUR-SEMANTIK VA KOGNITIV
XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Urganch-2026

UO‘K: 811.111'373.46+811.512.133'373.46

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in Philological
Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Adambayeva Feruza Rustambekovna

Ingliz va o‘zbek tillarida biotexnologiyaga oid terminlarning struktur-semantik
va kognitiv xususiyatlari 3

Adambaeva Feruza Rustambekovna

Structural-semantic and cognitive properties of biotechnology terms in the
English and Uzbek languages 27

Адамбаева Феруза Рустамбековна

Структурно-семантические и когнитивные особенности терминов
биотехнологии в английском и узбекском языках..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 56

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ADAMBAYEVA FERUZA RUSTAMBEKOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA BIOTEXNOLOGIYAGA OID
TERMINLARNING STRUKTUR-SEMANTIK VA KOGNITIV
XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Urganch-2026

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Fil2515 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.urdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Sadullayeva Nilufar Azimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Ermetova Jamila Ismailovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Mamatov Abdi Eshonqulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 raqamli Ilmiy kengashning "30" aprel 2026-yil soat 9: 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H. Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-67-00; faks: (+99862) 224-67-00; e-mail: info@urdu.uz)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (8-974 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-67-00; e-mail: arm@urdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "13" aprel kuni tarqatildi.
(2026 yil "13" aprel dagi 86 raqamli reestr bayonnomasi).



D.Q.G'ayipov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori (DSc),
professor

S.S.Atajanov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

A.I.Primov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon tilshunosligida chog'ishtirma tadqiqotlar negizida biotexnologiyaga oid terminlarni ilmiy mezonlar asosida tavsiflash, mavzuiy chegaralarini belgilash, tizimlashtirish hamda qo'llanish me'yorlarini aniqlashtirish masalalarini tadqiq etishga e'tibor kuchaymoqda. Ayniqsa, biotexnologiya terminlarining lisoniy tabiatini o'rganishda an'anaviy terminologiya tamoyillari bilan bir qatorda, kognitiv-semantik yondashuv asosida ma'no hosil bo'lish mexanizmlarini ochib berish, terminlar shakllanishiga ta'sir etuvchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida biotexnologiyaga oid terminlarni qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi ilmiy-texnologik va ijtimoiy omillarni hamda turli tillardagi terminlar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash imkonini beradi. Jumladan, biotexnologiya sohasiga oid terminlarning ilmiy-nazariy asoslarini, struktur-semantik va kognitiv xususiyatlarini chog'ishtirma-tipologik aspektida o'rganish, ularning yuzaga kelishini belgilovchi omillarni aniqlash, murakkab, izoh talab qiluvchi terminlarning mazmun-mohiyatini ochib berish va ularni tarjima qilish tamoyillarini ishlab chiqish bugungi terminologik tadqiqotlarning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda globallashtirish jarayonlari sharoitida ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash nuqtayi nazaridan biotexnologiya terminologiyasini o'rganish, ilmiy tushunchalarning aniq va izchil talqinini shakllantirish, standartlashtirilgan terminlar tizimini yaratish hamda milliy terminologiya fondini boyitish kabi masalalarning muhimligi ushbu sohada tadqiqotlar olib borilishining zaruratini belgilaydi. Chet tillardan kirib kelayotgan yangi terminlarni tartibga solish, muqobil variantlarini iste'mol uchun tavsiya etish, o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida o'zlashtirish hamda "...davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyotlarini yaratish"¹ bugungi kunda tilshunoslik va tarjimashunoslik oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada ingliz va o'zbek tillarida biotexnologiyaga oid terminlarni chog'ishtirma tilshunoslik doirasida o'rganish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-sonli "Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 19 майдаги "Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-5117-сон Қарори // <https://lex.uz/docs/5426736>

tadbirlari to‘g‘risida’gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida terminlarning shakllanishi va struktur-semantik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, E. Vyuster, H.Felber, J.C.Sager, P.Sandrini, S.E.Rayt, G.Budin, M.T. Kabre, S.I.Landau, M.C.Baker, M.Fernandez-Parra, D.S.Lotte, G.O.Vinokur, A.A.Reformatskiy, L.S.Barxudarov, S.V.Grinev-Grinevich, V.M.Leychik kabi olimlar² tomonidan terminshunoslikning nazariy asoslari, terminlarning shakllanish jarayoni, ularning struktur xususiyatlari, standartlashtirish va me‘yorlashtirish masalalari hamda tarjima tamoyillari ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tadqiq etilgan.

O‘zbek tilshunosligida esa A.Hojiyev, H.Dadaboyev, S.Usmonov, R.Doniyorov, N.Qosimov, E.Begmatov, A.P.Madvaliyev, G‘.M. Ismailov, X.D. Paluanova, X.A.Sarimsokov³ va boshqalarning ilmiy ishlari milliy terminologiya tizimining taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shgan.

Biotexnologiyaga oid terminlarning global miqyosda standartlashtirilishi FAO (Food and Agriculture Organization of the United Nations – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti) tomonidan tuzilgan

² Wüster E. Internationale Sprachnormung in der Technik, besonders in der Elektrotechnik. – Bonn: Bouvier, 1970. – 507 p.; Felber H. Terminology Manual. – Paris: Unesco and Infoterm, 1984. – 426 p.; Sager J.C. Language engineering and translation: Consequences of automation. – Amsterdam, Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1994. – 345 p.; Sandrini P. Terminologiearbeit im Recht: Deskriptiver, begriffsorientierter Ansatz vom Standpunkt des Übersetzers. – Wien: Termnet, 1996. –291 p.; Wright S.E., Budin G. Handbook of Terminology Management. – Amsterdam, Philadelphia: John Benjamins Publishing, 1997. – 370 p.; Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1999. – 260 p.; Landau S.I. Dictionaries: The Art and Craft of Lexicography. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 496 p.; Baker M.C. Case: Its Principles and Its Parameters. – Cambridge: 2015. – 336 p.; Fernández-Parra M. Terminology Management for Translators. – London: Routledge, Cambridge University Press, 2025. – 316 p.; Лотте Д. С. Основы построения научно-технической терминологии – Москва: 1961. – 158 с.; Vinokur G.O. The Russian Language: A Brief History. – Cambridge University Press, 2010. – 160 p.; Реформатский А.А. Введение в языкознание: учебник для вузов. – Москва: Аспект-Пресс, 2001. – 536 с.; Бархударов Л.С. Язык и перевод. Вопросы общей и частной теории перевода. – Москва: 1975. –238 с.; Гринеv-Гринеvич С.В. Терминоведение. – Москва: Академия, 2008. –304 с.; Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – Москва: 2009. –256 с.;

³ Ҳожиёв А. Термин танлаш мезонлари. – Тошкент: Фан, 1996. – 128 б.; Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019. – 117 б.; Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент, 1968. –118 б.; Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 162 б.; Қосимов Н. Ўзбек тили илмий техникавий терминологияси масалалари. – Тошкент, 1985. – 124 б.; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985 –201 б.; Мадвалиев А.П. Ўзбек тили изоҳли луғатларида сўзларга этимологик маълумот бериш масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2009. – №3. – Б. 35-43; Исмаилов Ғ.М. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. ф.ф.н. дисс. автореф. – Тошкент, 2011. -26 б.; Paluanova X. Ingliz, o‘zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ekologik terminlarning derivatsion-semantik prinsiplari. f.f.d. diss... – Toshkent, 2016. –230 б.; Sarimsokov X.A. Ingliz va o‘zbek tillaridagi sport sharhlari leksikasining lingvistik xususiyatlari. Avtoref. filol. fan. dok. diss... – Toshkent, 2024. – 61 б.

“Glossary of Biotechnology and Genetic Engineering”⁴ lugʻatida aks etgan boʻlib,⁵ unda terminlarning ilmiy talqinlari va qoʻllanish doirasi aniq belgilangan. G.Plappert⁵ genetika korpusi asosida olib borilgan izlanishlari natijasida biotexnologik birliklarning ilmiy matnlarda qoʻllanishi, frazeologik birikish xususiyatlari va kontekstual moslashuvini tushuntirib bergan.

Biotexnologiya terminlarining struktur-semantik xususiyatlarini oʻrganishga bagʻishlangan tadqiqotlar orasida T.A.Kudinovaning⁶ ishlari alohida oʻrin tutadi. Uning izlanishlarida ingliz va rus tillaridagi koʻp komponentli biotexnologik terminlarning tarkibiy modellarini aniqlash, ularning semantik tuzilishi, komponentlararo munosabat va morfologik-derivatsion xususiyatlari atroflicha tahlil qilingan. S.L.Vasilyeva, Z.Gainutdinova, A.Muxtarova, A.Sirotn, E.Mishak, L.Ritikova va L.Rogachlarning⁷ tadqiqot ishlari biotexnologiya terminlarining shakllanishida yunon-lotin affikslarining qoʻllanilishi, terminlarning tarkibiy modellari hamda tarjima tamoyillarini yoritishga bagʻishlangan. O.S.Voyevodina⁸ esa ingliz tilidagi biotexnologiyaga oid terminlarni tizimlashtirish va oʻqitilishiga oid amaliy yondashuvlarni taklif qilgan.

Tilshunoslikda anʻanaviy strukturaviy yondashuvdan farqli ravishda antroposentrik paradigma tilni inson tafakkuri va idroki bilan bogʻliq dinamik tizim sifatida talqin qiladi. Kognitiv lingvistika esa til birliklarining konseptual asoslari, maʼno shakllanishi va mental modellar orqali bilimning ifodalanishini oʻrganadi. Ushbu yondashuvning asosiy metodologiyasi “The Cambridge Handbook of Cognitive Linguistics”da⁹ konseptualizatsiya, metafora, freym, blending va kognitiv grammatika kabi tushunchalar yagona kognitiv metodologiya sifatida izohlangan. Kognitiv tilshunoslikning ushbu nazariy tamoyillari maxsus leksik qatlamlarni, jumladan, terminlarni oʻrganishda ham faol qoʻllanilmoqda. R.Temmerman¹⁰ terminologiyani ijtimoiy-kognitiv jarayon sifatida talqin qilib, semasiologik va onomasiologik yondashuvlarning uygʻun qoʻllanishi, shuningdek sinonimiya va

⁴ Zaid A., Hughes H., Porceddu E., Nicolas F. Glossary of biotechnology and genetic engineering. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 1999. – 250p.

⁵ Plappert G.L. Phraseology and Epistemology in Scientific Writing: A Corpus-Driven Approach: PhD thesis. University of Birmingham. – Birmingham: 2012. – 298 p.

⁶ Кудинова Т. А. Структурно-семантические особенности многокомпонентных терминов в подязыке биотехнологий (на материале русского и английского языков): автореф. дисс. ... к.ф.н. – Орел, 2006. – 24 с.

⁷ Васильева С. Л. Морфологические особенности однокомпонентных терминов сферы биотехнологий в русском и английском языках // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2015. – С. 50–52.; Gainutdinova A.Z., Mukhtarova A.D. Structural and semantic features of multicomponent terms in the field of biotechnology // Eurasian Journal of Biosciences. – 2019. Vol.13, Is.2.–P.1463-1466.; Syrotn A. Multi-component English terms of biotechnology sphere // Cogito. Multidisciplinary Research Journal. – 2017. Vol. 9, P.78–86.; Сиротин А. С. Типы структурных моделей англоязычных терминов-словосочетаний сферы биотехнологии // Studia Humanitatis. – 2020. – № 3. – С. 15.; Myshak, E. Morphological peculiarities of English one-component terms of biotechnologies // Cogito. – 2017. – № 3. – P. 64–71.; Rytikova L. Features of the formation of biotechnological terminology in English // Agrarian Science and Education. – 2008. № 3–4. – P. 122–126.; Rohach L. Semantic phenomena characterizing English terminology of biotechnology // Modern Studies in Foreign Philology. – 2019. Vol. 17. – P. 112–120.

⁸ Воеводина О. С. Методика обучения иноязычной терминологии студентов вуза по направлению подготовки «Биотехнология»: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Нижний Новгород: НГЛУ, 2013. – 24 с.

⁹ Dancygier B. The Cambridge Handbook of Cognitive Linguistics Cambridge: Cambridge University Press, 2017. – 840 p. DOI: 10.1017/9781316339732.

¹⁰ Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. – Amsterdam: J. Benjamins Publishing Company, 2000. – P. 97.

polisemiya kabi hodisalarning ilmiy til tizimidagi funksional rolga e'tibor qaratgan. M.Tereza Kabre¹¹ terminologiyani lingvistik, kognitiv va ijtimoiy omillar bilan bog'liq murakkab tizim sifatida izohlagan. E. I. Golovanova¹² terminlarni konseptual bilimni kodlovchi mental modellarning lingvistik ifodasi sifatida tahlil qilsa, P. Faber¹³ maxsus soha tilida freym, metafora va konseptual tuzilmalarga asoslangan kognitiv modellashtirishning ahamiyatini ko'rsatib bergan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'zbek tilida biotexnologiyaga oid terminlarni tadqiq qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borilmagan, shu bilan birga, ingliz va o'zbek tillaridagi biotexnologik terminlarning struktur-semantik va kognitiv xususiyatlarini qiyosiy chog'ishtirma tadqiqi amalga oshirilmagan bo'lib, ushbu tadqiqot ishi mazkur bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Dissertatsiyaning tadqiqot bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti "Qiyosiy tilshunoslik" kafedrasining "Turli tizimli tillarning tipologik va chog'ishtirma xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi biotexnologiyaga oid terminlarning struktur-semantik va kognitiv xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

biotexnologiyaga oid terminlarning shakllanishiga ta'sir qiluvchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni tahlil qilish hamda terminlarning xalqaro va milliy manbalar asosidagi geterogenligini ilmiy jihatdan tavsiflash;

sohaga oid ingliz va o'zbek tillaridagi terminlarning struktur xususiyatlarini chog'ishtirma tahlil qilish, ular o'rtasidagi leksik-semantik munosabatlarni aniqlash;

terminlar shakllanishining tarkibiy modellarini tasniflash hamda eponimik birliklarning shakllanish va qo'llanish xususiyatlarini o'rganish;

chog'ishtirilayotgan tillarda biotexnologiyaga oid terminlarni kognitiv asosda kategoriyalash hamda terminlar shakllanishida ishtirok etuvchi metaforik modellarni aniqlash;

freym modeli asosida ingliz va o'zbek tillaridagi biotexnologiyaga oid terminlar o'rtasidagi ierarxik va konseptual munosabatlarni tavsiflash;

ingliz va o'zbek tillaridagi biotexnologiyaga oid terminlarning tarkibiy komponentlarini aniqlash, ularni turlarga ajratish va terminlarning tizimlilik xususiyatlarini ochib beruvchi statistik tahlil ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi terminologik lug'atlarda, ilmiy va o'quv-metodik matnlar, biotexnologiya sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda internet manbalarida qo'llanilgan terminlar majmuasi tanlangan.

Tadqiqotning predmetini biotexnologiya sohasiga oid terminlarning struktur-semantik va kognitiv xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda terminlarning struktur va

¹¹ Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1999. – 260 p.

¹² Голованова Е.И. Введение в когнитивное терминоведение. 4-е изд., стер. – Москва: Наука, 2024. – 224 с.

¹³ Faber P. A Cognitive Linguistics View of Terminology and Specialized Language. – Berlin: De Gruyter Mouton, 2012. – <https://doi.org/10.1515/9783110277203> – P.3-29

chog'ishtirma tahlil, mavzuiy tasniflash, statistik tahlil, freym tahlil, konseptual xaritalash va metaforik modellashtirish, diaxron va sinxron tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillari biotexnologiya terminologiyasining biologiya, genetika, mikrobiologiya, tibbiyot, kimyo, muhandislik va axborot texnologiyalari kabi fanlar kesishmasida xalqaro, o'zlashma va kalkalangan birliklar asosida shakllangan geterogen tizimi aniqlanib, leksik birliklarning tarixiy-etimologik jihatlari, o'zlashtirilish jarayonida xalqaro terminlarning qabul qiluvchi til tizimiga semantik va kognitiv jihatdan moslashuvi hamda barqarorlashuvi qiyosiy-chog'ishtirma aspektda nazariy va amaliy jihatdan ochib berilgan;

chog'ishtirilayotgan tillarda biotexnologiyaga oid terminlarning morfologik (affiksatsiya, konversiya), morfologik-sintaktik (kompozitsiya, blending, abbreviatsiya), sintaktik, semantik va leksik-semantik usullar orqali yasalishi, murakkab ilmiy tushunchalarni ifodalashi hamda tarkibida eponimik birliklarning qo'llanilishi sababli ingliz tilida morfologik-sintaktik model, o'zbek tilida esa leksik-semantik o'zlashtirish va ko'p komponentli sintaktik termin birikmalarining ustunlik qilishi struktur hamda statistik tahlil asosida aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillari biotexnologiya terminologiyasida sinonimiya, antonimiya, polisemiya va giper-giponimiya kabi paradigmatic munosabatlar ilmiy tushunchalarning turli semantik belgilar asosida nomlanishi natijasida yuzaga kelishi hamda ularning har ikkala tilda biotexnologiyaga oid terminlar tizimini boyitishdagi samaradorligi isbotlangan;

ingliz va o'zbek tillarida biotexnologiyaga oid terminlarning konseptual kategoriyalari aniqlanib, biotexnologiya freymi hamda uning subfreym va slotlari o'rtasidagi ierarxik-konseptual munosabatlar ochib berilgan, shuningdek, terminlar tarkibidagi metaforik birliklarning to'rtta manba soha (inson dunyosi, texnika va predmetlar, tabiat hodisalari va jismlari, harbiy soha) asosida shakllanishi hamda har ikkala tilda voqelanishidagi o'xshashlik va farqlar misollar orqali dalillangan.

Tadqiqot ishining amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillarida biotexnologiyaga oid terminlarning shakllanishi (o'zlashgan termin, tub termin, yasama termin)ni, struktur-semantik va kognitiv xususiyatlarini chog'ishtirma aspektda o'rganish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

chog'ishtirilayotgan tillarda biotexnologiya sohasiga oid terminlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar ta'sirida, xalqaro, o'zlashma va kalkalangan birliklar asosida shakllanishi, rivojlanish tendensiyalariga doir ilmiy xulosalar biotexnologiya sohasi bo'yicha yaratiladigan izohli lug'at, o'quv qo'llanma va darsliklarning mukammalashuviga xizmat qilishi asoslangan;

tadqiqotning ilmiy asoslari, qo'llangan metodologik yondashuvlar va lisoniy tahlilning zamonaviy usullari, shuningdek, olingan natijalarning tadqiqot konsepsiyasiga to'liq mosligi hamda belgilangan vazifalarning izchil yechilishi olingan natijalarning ishonchligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarning struktur-semantik, chog'ishtirma, tasniflash, kognitiv,

freym, metaforik va statistik tahlillar bilan asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning ishonchli ilmiy manbalardan olinganligi, amaliy tavsiyalarning ta'lim jarayoni va terminologik faoliyatda sinovdan o'tganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida olib borilgan izlanishlar biotexnologiya terminlarining til tizimidagi o'ziga xos mavqeyini ochib beradi, qiyosiy terminologiya yo'nalishining ilmiy-tadqiqot tamoyillarini yanada boyitadi va dissertatsiyada keltirilgan chog'ishtirilayotgan tillardagi biotexnologiya terminlari yuzasidan bildirilgan ilmiy xulosalar va umumlashtirishlar boshqa terminologik tizimlarni o'rganishda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot materiallari va xulosalaridan biotexnologiyaga oid terminlarning o'ziga xos xususiyatlari, tilshunoslik, terminshunoslik, terminografiya, leksikologiya, leksikografiya kabi fanlar bo'yicha o'quv qo'llanma, darslik, majmualar tayyorlashda, ikki tilli izohli biotexnologiyaga oid terminlar lug'atlarini yaratishda amaliy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tillarida biotexnologiyaga oid terminlarning struktur-semantik va kognitiv xususiyatlarini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o'zbek tillari biotexnologiya terminologiyasining biologiya, genetika, mikrobiologiya, tibbiyot, kimyo, muhandislik va axborot texnologiyalari kabi fanlar kesishmasida xalqaro, o'zlashma va kalkalangan birliklar asosida shakllangan geterogen tizimi aniqlanib, leksik birliklarning tarixiy-etimologik jihatlari, o'zlashtirilish jarayonida xalqaro terminlarning qabul qiluvchi til tizimiga semantik va kognitiv jihatdan moslashuvi hamda barqarorlashuvi qiyosiy-chog'ishtirma aspektda nazariy va amaliy jihatdan ochib berilganligi bilan bog'liq xulosalaridan Yevropa Ittifoqining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan Erasmus+ dasturining ERASMUS-EDU-2022-101082242 raqamli "12-PLEDGE (Innovative and interdisciplinary Programmes in Bio-medical Engineering to Leverage and Exploit the Digital Growth programme for students' employability in Uz)" nomli loyihasi doirasida foydalanilgan (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filialining 2025-yil 7-apreldagi 430-sonli ma'lumotnomasi). Natijada "Biotibbiyot muhandisligi" ta'lim yo'nalishi o'quv dasturlarining ilmiy-nazariy asoslari boyitilgan, biotexnologik terminlarni tarjima qilishning metodik tamoyillari amaliy jihatdan mustahkamlangan;

chog'ishtirilayotgan tillarda biotexnologiyaga oid terminlarning morfologik (affiksatsiya, konversiya), morfologik-sintaktik (kompozitsiya, blending, abbreviatsiya), sintaktik, semantik va leksik-semantik usullar orqali yasalishi, murakkab ilmiy tushunchalarni ifodalashi hamda tarkibida eponimik birliklarning qo'llanilishi sababli ingliz tilida morfologik-sintaktik model, o'zbek tilida esa leksik-semantik o'zlashtirish va ko'p komponentli sintaktik termin birikmalarining ustunlik qilishi struktur hamda statistik tahlil asosida aniqlangani haqidagi xulosalardan Yevropa Ittifoqining 2023-2025 yillarga mo'ljallangan Erasmus+ ECAMPUZ – European World Talent Camp for Uzbekistan Scientists in Food Science and

Technology – ERASMUS-EDU-2022-CBHE nomli grant loyihada foydalanilgan (Toshkent kimyo-texnologiya institutining 2025-yil 21-apreldagi 1/06-1231-sonli ma'lumotnomasi). Natijada "Oziq-ovqat fanlari va texnologiyasi" bo'yicha ilg'or kurslar uchun tayyorlangan o'quv materiallari ilmiy-nazariy jihatdan boyitilgan, dasturlar mazmuni xalqaro tajriba asosida yangilangan, shuningdek "Biotexnologiya" va "Oziq-ovqat xavfsizligi" kurslarida terminlarni tarjima qilishga doir metodik yondashuvlar takomillashtirilgan;

ingliz va o'zbek tillari biotexnologiya terminologiyasida sinonimiya, antonimiya, polisemiya va giper-giponimiya kabi paradigmatic munosabatlar ilmiy tushunchalarning turli semantik belgilar asosida nomlanishi natijasida yuzaga kelishi hamda ularning har ikkala tilda biotexnologiyaga oid terminlar tizimini boyitishdagi samaradorligiga doir yangiliklaridan ERASMUS+ dasturining 598340-EPP-1-2018-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP University Cooperation Framework for Knowledge Transfer in Central Asia and China (UNICAC) grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 24-apreldagi 04/11-5371-sonli ma'lumotnomasi). Natijada magistratura talabalari uchun mo'ljallangan o'quv materiallarini nazariy jihatdan takomillashtirishga samarali manba bo'lib xizmat qilgan;

ingliz va o'zbek tillarida biotexnologiyaga oid terminlarning konseptual kategoriyalari aniqlanib, biotexnologiya freymi hamda uning subfreym va slotlari o'rtasidagi ierarxik-konseptual munosabatlar ochib berilgan, shuningdek, terminlar tarkibidagi metaforik birliklarning to'rtta manba soha (inson dunyosi, texnika va predmetlar, tabiat hodisalari va jismlari, harbiy soha) asosida shakllanishi hamda har ikkala tilda voqelanishidagi o'xshashlik va farqlar misollar orqali dalillanganligi haqidagi xulosalaridan "Xorazm viloyat teleradiokanali" orqali efirga uzatilgan "Najot bilimda", "Salomatlik sirlari" va "Agroolam" ko'rsatuvlari ssenariysini yozishda foydalanilgan (Xorazm teleradiokompaniyasining 2025-yil 9-apreldagi 319-sonli ma'lumotnomasi). Natijada teleko'rsatuvlarning ilmiy mazmuni sifat jihatdan yuksalishi barobarida, murakkab biotexnologik tushunchalarni keng auditoriyaga sodda, ravon va ilmiy asoslangan shaklda yetkazishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta ilmiy amaliy anjumanda, shu jumladan, 12 ta xalqaro va 2 ta respublika konferensiyasida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan 27 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola (10 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan, hamda 1 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vosita uchun qayd qilish guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 146 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Biotexnologiyaga oid terminlarni oʻrganishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlanuvchi birinchi bobi toʻrt fasldan iborat. Birinchi fasl **“Terminologiya tilshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida”** deb nomlangan boʻlib, unda terminologiyaning tarixiy shakllanishi, nazariy tamoyillari, *“termin”*, *“terminologiya”*, *“termin tizimi”* tushunchalarining farqlari, terminning asosiy belgilari hamda termin yaratishning asosiy usullari haqida maʼlumot berilgan.

Terminologiyaning mustaqil ilmiy fan sifatida shakllanishi XX asr boshlarida E.Vyuster¹⁴ ishlari bilan izohlanib, u terminlarning aniqligi, unifikatsiyasi va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikdagi ahamiyatini asoslab berdi. Vyuster tomonidan ilgari surilgan ushbu tamoyillar keyinchalik ISO (International Organization for Standardization) faoliyatida oʻz aksini topib, terminologiyaning global miqyosda tartibga solinishiga zamin yaratdi. D.S.Lotte¹⁵ texnik termin tizimlari uchun nazariy asos yaratdi, G.O.Vinokur¹⁶ terminlarning lingvistik mohiyatini ochib berdi, A.A.Reformatskiy¹⁷ tomonidan yaratilgan *“Terminologiya”* boʻlimini oʻz ichiga olgan darslik esa ushbu yoʻnalishning mustaqil ilmiy fan sifatida shakllanishini mustahkamladi.

Terminologiyadagi munozarali masalalardan biri bu termin va umumisteʼmoldagi soʻzlar orasidagi chegarani aniqlashdir. Leksik qatlam orasida doimiy terminologizatsiya (terminlashuv) va determinologizatsiya (terminlik xususiyatini yoʻqotish) jarayonlari sababli tilshunoslar bu ikki leksik qatlam oʻrtasidagi chegarani aniqlash mushkul deb hisoblaydilar. Terminologizatsiya – umumisteʼmol leksikaga oid soʻzning terminga aylanishi¹⁸ boʻlib, biror-bir soha leksikasiga oid terminlarning aksariyati shu yoʻl bilan lisoniy bosqichga koʻtariladi. E.I.Dibrovaning fikriga koʻra, terminologik tizim uch usul orqali shakllanadi: morfologik derivatsiya, semantik derivatsiya va boshqa tillardan soʻzlarni oʻzlashtirish orqali¹⁹. Terminologik derivatsiya affiksatsiya, qoʻshma soʻzlar yasash, konversiya, abbreviatsiya, sintaktik modellash, semantik koʻchish va oʻzlashtirish kabi usullarni oʻz ichiga oladi. Ushbu tadqiqotda ishida esa termin yaratishning morfologik, morfologik-sintaktik, sintaktik, semantik va leksik-semantik usullari

¹⁴ Wüster E. Internationale Sprachnormung in der Technik. – Berlin: VDI-Verlag, 1931. – P.18.

¹⁵ Лотте Д. С. Основы построения научно-технической терминологии. — М.: ОНТИ, 1961. – 112 с.

¹⁶ Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды Московского института истории, философии и литературы. – Москва, 1939. – С.3-54.

¹⁷ Реформатский А.А. Что такое терминология. // Вопросы языкознания. – Москва, 1961. – С. 49.

¹⁸ Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Бокиева Г.Х., Курбонова М.М., Юнусова. З.К., Абузалова М.К. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2009. – Б.116.

¹⁹ Диброва Е.И. Современный русский язык. Теория. Анализ языковых единиц. Учебник для студ. Высш. Учеб. Заведений: в 2 ч. – М.: Академия, 2002. – 540 с.

asosiy yondashuvlar sifatida qoʻllanildi.

Bobning ikkinchi fasli **“Terminlarni oʻrganishda kognitiv yondashuv”** deb nomlanib, ushbu faslda antroposentrik paradigma va kognitiv tilshunoslikning shakllanishi, tilni inson tafakkuri va konseptual tizimi bilan bogʻliq holda talqin etish gʻoyalari tahlil qilinib, L.Yu.Buyanova, E.I.Golovanova, P.Faber, V.F.Novodranova, M.Minskiy, J.Lakoff, M.Jonson, L.P.Grunina va boshqa olimlar²⁰ qarashlari asosida kognitiv terminologiyaning mazmuni ochib berilgan.

Kognitiv terminologiya terminlarning faqat til tizimidagi funksiyasi bilan cheklanmay, ularni konseptualizatsiya, kategoriyalash, freym modellashtirish, metaforizatsiya va kognitiv derivatsiya kabi jarayonlar orqali ilmiy bilimlarni aks ettiruvchi konseptual birliklar sifatida talqin qiladi. Kognitiv yondashuv terminlarni oʻrganishda kognitiv-semantik, kognitiv-grammatik hamda lingvomadaniy yondashuvlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Kognitiv yondashuv doirasida terminlarning yoʻnaltiruvchi, tizimlashtiruvchi va modellashtiruvchi funksiyalari ularning ilmiy bilimni qayd etish va tartibga solishdagi kognitiv rolini belgilaydi. Ushbu yondashuv terminlarni inson ongidagi konseptual tuzilmalarning lingvistik ifodasi sifatida talqin etib, ularning shakllanishi va tizimliliigi kognitiv mexanizmlar bilan bogʻliqligini ochib beradi.

Shuningdek, faslda konseptualizatsiya va kategoriyalash, freym modellashtirish, metaforizatsiya hamda tillararo oʻzlashtirish kabi asosiy kognitiv mexanizmlarning terminologiya tadqiqotlaridagi oʻrni batafsil yoritilib, ushbu jarayonlarning terminlarning shakllanishi, mazmuniy tuzilishi va konseptual tizimdagi oʻrnini belgilashdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Bobning **“Biotexnologiyaga oid terminlarning shakllanishida ekstralingvistik va lingvistik omillar”** nomli uchinchi faslida biotexnologiya terminologiyasining tarkib topishi va evolyutsiyasiga taʼsir qiluvchi tashqi va ichki omillar tizimli ravishda tahlil qilingan.

Ekstralingvistik omillar sifatida biotexnologiyaning qadimgi, klassik va zamonaviy bosqichlari, ilmiy-texnik taraqqiyot, COVID-19 kabi global jarayonlar, fanlararo integratsiya, xalqaro hamkorlik hamda biotexnologik amaliyotlarga nisbatan jamiyatning axloqiy-ijtimoiy munosabati koʻrib chiqildi. Biotexnologiya terminologiyasining tarixiy shakllanishi uch bosqichda namoyon boʻlib, qadimgi bosqichda *“fermentatsiya”* va *“yeast”(xamirturush)* kabi amaliy jarayonlarni ifodalovchi birliklar yuzaga kelgan; klassik davrda genetika fanining shakllanishi bilan *“gen”* va *“allel”* kabi asosiy terminlar ilmiy muomalaga kiritilgan; zamonaviy bosqich esa *DNKning qoʻsh spiral modeli*, *“kodon”*, *“PCR”(polimeraza zanjir reaksiyasi)*, *“GMO”(genetik jihatdan oʻzgartirilgan organizmlar)* va *“CRISPR”*

²⁰ Буянова Л.Ю. Терминологическая деривация в языке науки: когнитивность, семиотичность, функциональность: монография. – Москва: Наука, 2014. – 256 с.; Голованова Е.И. Введение в когнитивное терминоведение: учеб. пособие. – Москва: НАУКА, 2011. – 225 с.; Faber Pamela. A Cognitive Linguistics View of Terminology and Specialized Language. – Berlin, Boston: De Gruyter Mouton, 2012. –324p.; Новодранова В.Ф. Когнитивные науки и терминология // НТТ. – 2000. – № 2. – С. 69.; Минский, М. Фреймы для представления знаний / пер. с англ. О. Н. Гринбаума; под ред. Ф. М. Кулакова. – Москва: Энергия, 1979. – С. 5.; Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press. 1980. – 242 p.; Грунина Л.П., Широколобова А.Г. Когнитивный аспект исследования терминов // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2010. – № 1 (5). – С.97.

(*genom tahriri tizimi*) singari yadro terminlarning paydo bo'lishi va keng qo'llanishi bilan xarakterlanadi. Xususan, pandemiya davrida, "RT-PCR" (*real vaqtli PCR*), "mRNA vaccine" (*xabarchi RNK vaktsinasi*), "genomic surveillance" (*genom kuzatuvi*), "spike protein" (*spayk oqsili*) va "viral load" (*virus yuklamasi*) kabi biotexnologik terminlarning keskin faollashuvi biotexnologiya terminologiyasining global ilmiy-texnik jarayonlarga tezkor moslashuvchi dinamik tizim ekanligini ko'rsatdi. Lingvistik omillarga biotexnologiyaga oid o'zlashma terminlarning diaxron va sinxron rivojlanishi, ularning fonetik-morfologik moslashuvi, kalkalash, abbreviatsiya va affiksatsiya kabi usullar orqali shakllanishi hamda terminlarning semantik dinamikasini belgilovchi jarayonlar kiradi.

Bobning "***Biotexnologiyaga oid terminlarning geterogenlik xususiyati***" deb nomlangan to'rtinchi faslida biotexnologiya terminologiyasining fanlararo, ko'p manbali va murakkab tuzilishi nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Biotexnologiya terminologiyasi kimyo, biologiya, biokimyo, mikrobiologiya, molekulyar genetika, tibbiyot, farmakologiya, muhandislik, axborot texnologiyalari, ekologiya va qishloq xo'jaligi kabi turli sohalarning kesishgan nuqtasida rivojlanishi natijasida ko'p manbali va geterogen tizim sifatida shakllangan. Biotexnologiyaga oid terminologiya tizimi umumilmiy, kasbiy va maxsus birliklar majmuasi bo'lib, tirik organizmlar va biologik jarayonlarning ishlab chiqarish amaliyotida qo'llanishi bilan bog'liq bilimlarni verbal shaklda ifodalovchi leksik birliklardir.

Tadqiqot ishimizda biotexnologiya terminologiyasi S.G.Kazarina²¹ tomonidan taklif etilgan gomogen, geterogen, filiatson va kontaminatsion modellarga tayanilgan holda asosan geterogen turga mansub ekanligi, ya'ni uning shakllanishida zoologiya va botanika (*callus – kallus, hybrid – gibrid*), umumbiologiya (*organism – organizm, species – tur*), tibbiyot va farmakologiya (*biopsy – biopsiya, antigen – antitanacha*), kimyo va fizika (*enzyme – ferment, diffusion – diffuziya*), genetika (*gene – gen, GMO – genetik jihatdan o'zgartirilgan organizm*), muhandislik (*bioreactor – bioreaktor, process – jarayon*), axborot texnologiyalari (*bioinformatics – bioinformatika, database – ma'lumotlar bazasi*), ekologiya va qishloq xo'jaligi (*biodiversity – biologik xilma-xillik, biopesticides – biopestitsidlar*) kabi sohalardan olingan terminlar faol ishtirok etishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning "***Ingliz va o'zbek tillarida biotexnologiyaga oid terminlarning struktur-semantik xususiyatlari***" deb nomlangan ikkinchi bobning birinchi fasli "***Chog'ishtirilayotgan tillarda biotexnologiyaga oid terminlarning struktur tahlili***"da ingliz va o'zbek tillaridagi biotexnologiyaga oid terminlarning struktur xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinib, terminlarning bir komponentli va ko'p komponentli turlari, ularning yasalish mexanizmlari hamda ikki til o'rtasidagi umumiylik va farqlar aniqlangan.

Tadqiqot uchun ingliz tilidagi 1180 ta, o'zbek tilidagi 1100 ta termin tanlandi. Ingliz va o'zbek tillaridagi biotexnologiya terminlarining struktur xususiyatlarini qiyosiy tahlili ularni bir va ko'p komponentli terminlarga ajratishga imkon berdi. Bir komponentli terminlar tarkibida tub terminlarning ulushi ingliz tilida 29 %, o'zbek

²¹Казарина С.Г. Типологические характеристики отраслевых терминологий. –Краснодар: Кубан, 1998. -С.276.

tilida 38 %ni, yasama birliklar ulushi esa mos ravishda 60 % va 49 %ni tashkil etishini ko'rsatdi. Yasama birliklar asosan prefix va suffikslar orqali yuzaga keladi (ingliz: *re-*, *de-*, *trans-*, *anti-*, *bio-*; *-ion/-tion*, *-ity*, *-ing*; o'zbek: *bio-*, *anti-*, *trans-*; *-lik*, *-ma*, *-chi*, *-siz*). Ingliz tilidagi defisli shakllar (*cell-free*, *single-use*) o'zbekchada ko'pincha yasama yoki so'z birikmasi ko'rinishida beriladi (*hujayrasiz*, *bir martalik*). Har ikki til terminologiyasida lotin-yunon manbalariga tayanuvchi xalqaro affikslar faol qo'llaniladi.

Ingliz tilidagi biotexnologiya terminologiyasini boyituvchi usullardan biri blending (teleskopiya) usuli bo'lib, unda ikkita asos birlashtirilishi natijasida yangi termin hosil bo'ladi. Genetik modifikatsiya, sintetik biologiya va bioinformatika yo'nalishlaridagi innovatsiyalar natijasida yuzaga kelayotgan yangi obyekt va jarayonlarni nomlashda blending faol qo'llanib, murakkab tushunchalarni ixcham va aniq ifodalashga xizmat qiladi. Biotexnologiyaga oid teleskopik usul yordamida yasalgan terminlar O.A.Xrushevaning²² tasnifiga asoslanib 4 guruhga ajratildi: yangi organizmlar (masalan, *liger*, *broccoflower*), texnologik qurilmalar (*bioprinter*, *genechip*), fanlararo integratsiya mahsullari (*bionics*, *neurotech*) hamda murakkab kimyoviy birikmalar (*chlorofluorocarbon*). O'zbek tilida bunday terminlar bevosita transliteratsiya, transkripsiya yoki kalkalash usullari bilan o'zlashgan, ayrimlari esa izohlovchi birikmalar yordamida ifodalangan: *bionics-bionika*, *liger-liger*(*sheryo'lbars gibridi*), *broccoflower* – *gulkaram-karam* yoki *yashil gulkaram*.

Ingliz va o'zbek tillaridagi biotexnologiya terminologiyasini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu sohada ko'p komponentli termin birliklari ustunlik qiladi. Xususan, 750 ta ingliz ko'p komponentli terminlar (KKT) ni tahlil qilish natijasida quyidagi natijalarga erishildi: 355 ta (47,3%) ikki komponentli: (N+N: *cell envelope*, *gene therapy*; A+N: *anabolic enzyme*, *monoclonal antibody*; Ved+N: *activated enzyme*, *mutated cell*; Ving+N: *flanking region*, *living cell*), 310 ta (41,3%) uch komponentli; (N+N+N: *food additive industry*; A+N+N: *horizontal gene transfer*; Ved+N+N: *spent sulfite liquor*), 69 ta (9,2%) to'rt komponentli, 8 ta (1,1%) besh komponentli, 5 (0,7%) olti komponentli va 3 ta (0,4%) yetti komponentli. O'zbek tilida esa 710 ta KKT tahlil qilindi, ularning asosiy qismini ikki komponentli terminlar tashkil etadi – 345 ta (48,6%). Keyingi o'rinda uch komponentli terminlar turib, ular 290 ta (40,8%)ni tashkil etadi. To'rt komponentli terminlar soni 52 ta bo'lib, jami birliklarning 7,3 foizini qamrab oladi. Shuningdek, besh komponentli terminlar 12 ta (1,7%), olti komponentlilar 7 ta (1,0%) va yetti komponentlilar esa atigi 4 ta (0,6%) ni tashkil etdi. Ikki komponentli terminlar asosan Ot+Ot (*gen oqimi*, *embrion kulturasi*), Sifat+Ot (*kimyoviy mutagen*, *virusli vaksina*), Sifatdosh+Ot (*faollashtirilgan ferment*, *denaturatsiyalangan oqsil*), Ot+Harakat nomi (*genni klonlash*) kabi modellarga mansub bo'lib, ingliz tilidagi gerundiy shakllari odatda fe'ning harakat nomi orqali ifodalanadi. Terminlarning katta qismi o'zbek tiliga kalkalash (*primary tissue* – *birlamchi to'qima*), yarim kalka (*secondary immune response* – *ikkilamchi immun javob*), transliteratsiya yoki transkripsiya (*aerobic*

²² Хрущева О.А. Дискурсивные особенности блендов // Приоритетные направления развития современной науки: материалы Международной заочной научно-практической конференции. – Чебоксары: НИИ педагогики и психологии, 2010. – С. 44

bacteria – aerob bakteriyalar) orqali o‘zlashgani kuzatildi.

Uch va undan ortiq komponentli terminlarning ikki komponentli modellardan bosqichma-bosqich kengayish hisobiga shakllanishi aniqlandi. Ingliz tilida eng keng tarqalgan modellar A+N+N (*horizontal gene transfer*), N+N+N (*food additive industry*), Ved+N+N (*water jacketed incubator*), Adv+Ved+N (*genetically modified organism*), o‘zbek tilida esa Ot+Ot+Ot (*polimeraza zanjiri reaksiyasi*), Sifat+Ot+Ot (*tarmoqli ildiz kulturasi*), Sifat+Sifat+Ot (*shartli halokatli mutatsiya*) kabi tuzilmalar hisoblanadi.

Besh, olti va yetti komponentli terminlar murakkab ilmiy tushunchalarni ifodalashda qo‘llanadi: *somatic cell nuclear transfer technique* (5 komponentli), *bone marrow mesenchymal stem cell transplantation* (6 komponentli), *Real-Time Quantitative Reverse Transcription Polymerase Chain Reaction* (7 komponentli). O‘zbek tilida ham shunga o‘xshash modellarga duch kelinadi: *bir zanjirli nuklein kislotasi, genetik jihatdan o‘zgartirilgan organizm, qishloq xo‘jaligi hayvonlarining genetik resurslarini boshqarish*.

Ingliz tili biotexnologiya terminologiyasida DNA, PCR kabi qisqartmalar mustaqil termin sifatida ishlatiladi, o‘zbek tilida esa ular izohlovchi birliklar bilan birga qo‘llanilib (DNK namunasi, PCR tahlili), xalqaro standart shaklning saqlanishini ta’minlaydi.

Biotexnologiya terminlarini tuzilishiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, bu terminologik tizimda abbreviaturalarning o‘rni va ahamiyati beqiyos ekanligini ko‘rsatdi. Sohadagi ilmiy tushunchalarning murakkabligi sababli terminlarning asosiy qismini ko‘p komponentli terminlar tashkil qiladi. O‘zbek tiliga biotexnologik terminlar asosan ingliz tilidan, ma’lum bir qismi rus tili orqali o‘zlashganligi sababli o‘zlashma birliklar o‘zbek terminologiyasi shakllanishining asosiy omiliga aylangan. Qisqartmalar bo‘yicha esa ingliz tili terminlarning miqdori va xilma-xilligi bilan yetakchilik qiladi.

Bobning ikkinchi **“Ingliz va o‘zbek tillarida biotexnologiya terminologiyasida leksik-semantik munosabatlar”** deb nomlangan faslida biotexnologiya terminlari tizimidagi paradigmatic bog‘lanishlar – sinonimiya, antonimiya, polisemiya hamda giper–giponimik munosabatlar ingliz va o‘zbek tillari misolida qiyosiy tahlil qilingan.

Sinonimik terminologik birliklar bir necha mezonlar asosida tasniflanadi. Avvalo, sinonimlik darajasi terminlar o‘rtasidagi ma’no yaqinligini belgilab, mutlaq sinonimlar to‘liq semantik moslikni, nisbiy sinonimlar esa qisman farqlanuvchi ma’no o‘zaro bog‘lanishini ifodalaydi. Ikkinchi mezon – strukturaviy tip, ya’ni sinonimlarning bir komponentli, ko‘p komponentli yoki qisqartmalar asosida shakllanishi bilan tavsiflanadi. Uchinchisi – kontekstual qo‘llanilish, bunda sinonim terminlarning rasmiy ilmiy nutqda, amaliy muhokamalarda yoki turli funksional vaziyatlarda qo‘llanishi ularning mazmuniy va stilistik farqlanishini belgilaydi. Masalan, ingliz tilida *ascorbic acid – vitamin C, autocatalytic reaction – autocatalysis* kabi mutlaq sinonimlar mavjud. O‘zbek tilida esa *protein – oqsil, ferment – enzim* singari sinonimlar uchraydi. Nisbiy sinonimlar esa mazmunan yaqin, lekin qo‘llanish sohasi yoki konnotativ belgilari bilan farqlanadi: *biotechnology – genetic engineering*, o‘zbekchada esa *antikor – antitana*. Shuningdek, shakliy-strukturaviy variantlar ham sinonimiyaning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Tahlillar

grafik (*bioengineering – bio-engineering*), affiksial (*fertilize – fertilise; DNK gibrizlanishi – gibrizatsiyasi*) hamda qisqa-to'liq shakl variantlari (*genetically modified organism – GMO*) mavjudligini ko'rsatdi. Bu variantlilik turli normativ an'analar, tarjima uslublari va xalqaro terminologik standartlarning ta'siri bilan izohlanadi.

Biotexnologiya terminologiyasidagi antonimik munosabatlarni tahlil qilish natijasida mazkur birliklarning muayyan semantik mezonlar asosida shakllanishi aniqlandi. Xususan, **joylashuvi bo'yicha** *intracellular – extracellular* (hujayra ichidagi – hujayra tashqarisidagi), *in vivo – in vitro* (tirik organizmda – sun'iy sharoitda); **miqdori bo'yicha** *monogenic – multigenic* (bitta genli – ko'p genli), *haploid cell – diploid cell* (gaploid hujayra – diploid hujayra); **funksiyasi bo'yicha** *activation – inactivation* (faollashish – faolsizlanish), *anabolism – catabolism* (anabolizm – katabolizm); **belgi-xususiyati bo'yicha** *hydrophilic – hydrophobic* (gidrofil – gidrofob), *acidic – basic* (kislotali – asosli); **tarkibi bo'yicha** *saturated fatty acid – unsaturated fatty acid* (to'yingan yog' kislota – to'yingan yog' kislota); **o'lchami bo'yicha** *micromolecule – macromolecule* (mikromolekula – makromolekula) kabi antonim juftliklar terminologik tizimda qarama-qarshi konseptlarni belgilashda faol qo'llanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, ayrim antonimik birliklar muayyan kontekstga ko'ra bir nechta semantik toifaga mansub bo'lishi mumkin, biotexnologiya sohasining uzluksiz rivojlanishi esa yangi kashfiyot va tushunchalar negizida yangi antonimik munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Semantika nuqtai nazaridan eng muhim paradigmatic munosabatlar qatoriga kiruvchi yana bir muhim munosabat giper-giponimik munosabatdir. Giponimlarni asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Giponim bir tomonlama implikasiya tamoyili asosida aniqlanadi, ya'ni giponimni giperonim bilan almashtirish har doim mumkin, chunki bu turning jinsga bo'ysunishi hisoblanadi, lekin aksincha almashtirish har doim ham mumkin bo'lavermaydi;

2. Giponimning ma'nosi semantik jihatdan murakkabroq va boyroq bo'lib, u tasvirlaydigan predmetlar sinfi esa torroqdir;

3. Kogiponimlar o'rtasidagi semantik munosabatlar bir sinf elementlari o'rtasidagi munosabatlardir. Giponimlar giperonimning ma'nosini o'z ichiga oladi va bir-biriga qo'shimcha differensial semalar orqali qarama-qarshi qo'yiladi.

Tahlillar natijasida ingliz va o'zbek tillaridagi biotexnologiya terminologiyasida giper-giponimik munosabatlarning oltita asosiy turi aniqlandi. Jumladan, **umumiy tushuncha-tur tushuncha** munosabatida *GMO – GM plants, GM animals, GM microorganisms* (*GMO – GM o'simliklar, GM hayvonlar, GM mikroorganizmlar*); *cell – somatic cell, germ cell, stem cell* (*hujayra – somatik hujayra, jinsiy hujayra, ildiz hujayra*) kabi birliklar kuzatildi. **Sinf-sinf a'zosi** tipidagi munosabatlarda *virus – DNA virus, RNA virus* (*virus – DNK virusi, RNK virusi*), *protein – transport protein, structural protein* (*oqsil – tashuvchi oqsil, strukturaviy oqsil*) juftliklari namoyon bo'ladi. **Parametr-parametr tashuvchisi** munosabatida *protein synthesis – ribosome, mRNA, tRNA* (*oqsil sintezi – ribosoma, xabarchi RNK, tashuvchi RNK*) kabi tizimlar aniqlandi. **Jarayon-obyekt** aloqasida *fermentation – sugar, glucose –*

ethanol, CO₂ (fermentatsiya jarayoni – shakar, glyukoza – etanol, karbonat anhidrid) ko‘rinishlari qayd etildi. **Munosabat–munosabat a‘zolari** turida *genetic transformation – host organism, transgene (genetik transformatsiya – xost organizm, transgen)* kabi birliklar mavjud. **Xususiyat–obyekt** munosabatida esa *pluripotency – stem cells (pluripotentlik – ildiz hujayralar)* juftligi uchraydi.

Tizimli tahlil giponimik aloqalarning ikki, uch va to‘rt bosqichli qatlamlarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Masalan, *cloning (klonlash)* termini *reproductive cloning, therapeutic cloning, gene cloning (reproduktiv klonlash, terapevtik klonlash, gen klonlash)* kabi uch bosqichli, *gene (gen)* termini esa *structural gene, regulatory gene, oncogene (strukturaviy gen, regulyator gen, onkogen)* kabi to‘rt bosqichli zanjirlarni hosil qiladi. Ushbu natijalar biotexnologik terminologiyada giper–giponimik munosabatlar ilmiy tushunchalarni tabaqalashtirish va tizimlashtirishning muhim semantik vositasi ekanini tasdiqladi.

O‘rganishlarimiz natijasida “*vector*”, “*transformation*”, “*expression*”, “*culture*”, “*signal*” kabi terminlar turli ilmiy sohalarida parallel qo‘llanayotgan bo‘lsa-da, umumiy semantik yadroni saqlab qolishini aniqladik. Shu bois mazkur birliklarni omonimiya emas, tizimlararo polisemiya hodisasi sifatida talqin qildik.

Bobning navbatdagi “**Biotexnologiyaga oid eponimlarning o‘ziga xos xususiyatlari**” faslida atoqli otlardan hosil bo‘lgan maxsus nomlar – eponimlar biotexnologiya terminologiyasining alohida qatlami sifatida tahlil qilindi.

Eponimlar ilmiy-texnik taraqqiyot bosqichlarini hamda tarixiy-madaniy ma’lumotlarni o‘zida aks ettiruvchi, ilmiy nutqda muhim kognitiv vazifani bajaruvchi maxsus terminologik birliklar hisoblanadi²³. Eponim atamasi aslida haqiqiy yoki afsonaviy shaxs, qahramon, shahar, daryo, tog‘ kabi geografik obyekt, shuningdek, xalq yoki davr nomi bilan bog‘liq atoqli otlardan hosil bo‘lgan birlikni anglatadi. Ilmiy terminologiyada esa eponim muayyan hodisa, tuzilma, usul yoki tushunchani birinchi bo‘lib kashf etgan, tavsiflagan yoki ilmiy muomalaga kiritgan shaxs nomi bilan bog‘langan termin sifatida talqin etiladi²⁴.

A.Ziyodullayevning ta’kidlashicha, eponimlar umumiste’mol so‘zlardan semantik jihatdan maxsus tushunchalarni ifodalashi hamda funksional jihatdan asosan professional nutqda qo‘llanilishi bilan farqlanadi²⁵. Shu sababli eponimik birliklar tor semantik maydonga ega bo‘lib, yuqori darajadagi aniqlik va terminologik ixtisoslashuv bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot davomida ingliz tilida biotexnologiyaga oid matnlar asosida 107 ta eponim termin aniqlanib, ularning ko‘pchiligi tibbiyot, genetika, mikrobiologiya, kimyo va hujayra biologiyasi sohalaridan biotexnologiya tizimiga o‘zlashgani ma’lum bo‘ldi. Kelib chiqish manbasiga ko‘ra eponimlar antroponimlardan (*Donnan effect – Donnan effekti, Krebs cycle – Krebs sikli*), toponimlardan (*Edinburgh 76 virus – Edinburg 76 virusi*), brend nomlaridan (*Gibco cells – Gibco hujayralari*), mifologik nomlardan (*Chimera – Ximera, Hydra cells – Gidra hujayralari*) hosil

²³ Belopolsky A. A. Terms-eponyms in the composition of neurological terminologies. // Bulletin of SNO DONNU. Social sciences and humanities (Philology). - 2022. - P.202

²⁴ Ziyodullayev A.R. Thematic classification of eponyms // Scientific reports of Bukhara state university. 2022. – P.71.

²⁵ Ziyodullayev A. R. Ingliz va o‘zbek tilida eponimlarning lingvokognitiv hamda lingvokulturologik xususiyatlari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2024. – B.11.

bo'lad. Semantik jihatdan ular yetti asosiy guruhga ajratildi: DNK va RNK tuzilishiga oid birliklar (*Watson–Crick model – Uotson–Krik modeli, Okazaki fragment – Okazaki fragmenti*); hujayra va genetik muhandislik usullariga oid terminlar (*Gram staining – Gram bo'yash usuli, Southern blotting – Sauzern blottash*); genetikaning asosiy qonunlariga oid eponimlar (*Mendel's Laws – Mendel qonunlari, Hardy–Weinberg equilibrium – Hardi–Vaynberg muvozanati*); laboratoriya asboblari va jihozlarini bildiruvchi terminlar (*Petri dish – Petri kosasi, Pasteur pipette – Paster pipetkasi*); biotexnologiyaning etik tushunchalari (*Belmont Report – Belmont hisoboti*); o'lchov birliklari (*centiMorgan – sentimorgan, Roentgen – rentgen*); shuningdek, asosiy biotexnologik obyekt va jarayonlarni ifodalovchi eponimlar (*Barr body – Barr tanachasi, Langerhans cell – Langerhans hujayrasi*).

Biotexnologiya eponimlarining struktur xususiyatlari ularning sodda va ko'p komponentli shakllarda namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari ikki komponentli modelning ustunligini ko'rsatdi, ya'ni eponim terminlar ko'pincha Atoqli ot + Turdosh ot tuzilmasi asosida shakllanadi: masalan, *Petri dish – Petri kosasi, Mendel's Laws – Mendel qonunlari*. Eponimlarning yana bir muhim struktur ko'rinishi bir nechta olim nomi ishtirok etgan chiziqcha bilan bog'langan birliklardir. Bunday terminlar ilmiy kashfiyotlarning jamoaviy xarakterini aks ettiradi va biotexnologiya matnlarida keng qo'llanadi: *Watson–Crick model – Uotson–Krik modeli, Krebs–Kornberg cycle – Krebs–Kornberg sikli, Hardy–Weinberg equilibrium – Hardi–Vaynberg muvozanati*.

O'zbek tilida biotexnologiya eponimlari asosan asl shaklini saqlagan holda o'zlashadi, ayrimlari esa yarim kalka yoki izohlovchi birikma tarzida beriladi (*Gram bo'yash usuli, qo'sh spiral modeli*). Tahlilga tortilgan misollardan o'zbek tilidagi ko'plab terminlarda variantlilik mavjudligi aniqlandi (*Golji apparati / Golji kompleksi, pasterizatsiya / pasterlash, Valden inversiyasi / Valden almashinuvi, Inbriding koeffitsiyenti / qarindoshlik koeffitsiyenti*). Bu xilma-xillik, bir tomondan, terminlarning rus va ingliz tillari orqali turlicha kirib kelgani bilan, ikkinchi tomondan, o'zbek tilining milliyashtirish jarayonlari bilan bog'liq.

Biotexnologiyaga oid eponim terminlarining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini keltirib o'tish mumkin: eponimlar tarkibida atoqli ot bo'lgani sababli odatda bosh harf bilan yoziladi, biroq metonimizatsiya natijasida umumiy ilmiy termin sifatida kichik harfda qo'llanishi mumkin (*pasteurization – pasterizatsiya*); ular tilda tejamkorlikni ta'minlaydi; eponimlarning xalqaro xususiyati ularning turli tillarda deyarli bir xil shaklda qo'llanishiga imkon beradi; eponimlar motivatsion xarakterga ega bo'lib, ilmiy kashfiyotlar mualliflari nomi bilan bog'langan tarixiy-kognitiv ma'noni saqlaydi (*Mendel's Laws – Mendel qonunlari*).

Keltirib o'tilgan tahlillarimiz biotexnologiyada eponimlarning shakllanishi va qo'llanilishi murakkab, ko'p qirrali hamda interdisiplinar jarayon ekanini ko'rsatdi. Ushbu eponimlar turli sohalardan o'zlashib, biotexnologiyaning tarixiy rivoji, ilmiy maktablari va konseptual xususiyatlarini aks ettirgan. Ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida aniqlangan ularning struktur, semantik va funksional jihatlari bu qatlamning terminologik tizimda mustahkam o'rin egallaganini tasdiqladi. O'zbek tilida uchraydigan variantlilik terminlar tizimi to'liq standartlashmaganini ko'rsatdi hamda yagona norma zarur degan xulosaga keldik. Eponimlar ilmiy muloqotda

aniqlikni, tejamkorlikni va motivatsiyalilikni ta'minlaydi, terminologiyaning xalqaro darajada uyg'un qo'llanilishiga xizmat qiladi va ular biotexnologiya terminologiyasida faqat nom beruvchi birlik sifatida emas, balki ilmiy tafakkur, tarixiy xotira va kognitiv jarayonlarni bog'lovchi muhim lingvistik qatlam sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Ingliz va o'zbek tillarida biotexnologiyaga oid terminlarning kognitiv xususiyatlari**" deb nomlanib, uning ilk fasli "**Chog'ishtirilayotgan tillarda biotexnologiyaga oid terminlar o'zlashtirilishining kognitiv jihatlari**"ni tadqiq qilishga bag'ishlanadi.

Ma'lumki, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish biotexnologiya kabi ilmiy sohalar terminologiyasi shakllanishining muhim manbalaridan hisoblanadi. O'zlashuv jarayoni oddiy leksema almashinuvidan iborat bo'lmay, balki donor va retsipiyent tillarning konseptual makonlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida shakllanadigan murakkab kognitiv jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda fonetik va morfologik moslashuv bilan bir qatorda konseptual qayta talqin, semantik torayish yoki kengayish, shuningdek metaforik profilizatsiya kabi o'zgarishlarning yuzaga chiqishi kuzatiladi. Donor tildagi konsept retsipiyent til konseptosferasiga to'liq ko'chmaydi: uning ayrim belgilari markazlashadi, boshqalari esa periferiyaga suriladi. Masalan, ingliz tilidagi *fermentation* konsepti o'zbek tiliga *fermentatsiya* shaklida o'zlashar ekan, uning semantik tarkibida ma'no torayishi kuzatiladi: ingliz tilidagi "*kimyoviy parchalanish, gaz chiqishi, energiya ajralishi, qaynash*" kabi keng qamrovli xususiyatlar o'zbek tilida asosan "*fermentlar ta'siridagi achish/bijg'ish jarayoni*" bilan cheklanadi. Bu holat donor va retsipiyent tillar konseptual makonlari o'rtasidagi kognitiv moslashuvni ko'rsatadi.

O'zlashgan terminlar o'zbek biotexnologik nutqida yangi konseptual maydonlarni shakllantiradi. Masalan, "*gen*" va "*klon*" terminlari atrofida *genetika, gen muhandisligi, gen tahriri; klonlash, reproduktiv klonlash, terapevtik klonlash* kabi paradigmatic tizimlar vujudga kelgan. Bu terminlar bitta konseptual asos atrofida birlashib, tilning ilmiy-kasbiy konseptosferasini kengaytiradi.

Biotexnologiya terminologiyasida konseptual moslashuv terminlarning nafaqat semantik strukturasi, balki ularning tarkibidagi termin elementlarida ham namoyon bo'ladi. Masalan, "*bio-*" formanti konseptual marker sifatida yuzlab hosila birliklarning shakllanishiga asos bo'lib, *bioreaktor, biomahsulot, bioinformatika, biomarker* kabi paradigmatic tizimni yaratadi. Bunday birliklar yagona "*bio-*" konsepti atrofida semantik jihatdan birlashib, biotexnologik konseptosferaning shakllanishiga xizmat qiladi.

O'zlashuvning shakllanish mexanizmlarida moddiy o'zlashma (*gen, klon, biosensor*) va kalkalash (*cell culture* → *hujayra madaniyati; stem cell* → *ildiz hujayra*) asosiy turlar sifatida faol namoyon bo'ladi. Murakkab birikmalarda semantik kalkalash ham kuzatiladi (*vector* → *genetik tashuvchi, platforma* → *ma'lumotlar muhiti*). Ba'zan aralash, ya'ni gibrid shakllar ham yuzaga keladi: *bioyoqilg'i, biotibbiyot* kabi terminlarda xalqaro va milliy unsurlar birlashadi.

O'zbek biotexnologik terminologiyasida manbaviy jihatdan lotin va yunon qatlamlari yetakchi o'rin egallaydi (*virus, ferment, gen, gormon*), ingliz tili esa zamonaviy terminlarning asosiy donor tiliga aylangan bo'lib, ko'p hollarda rus tili

vositachiligida o'zlashuv jarayoni kechadi (*protein, intron, klon*). Shuningdek, fransuz (*kodon, jelatin*), nemis (*shtamm, kraxmal*), arab (*hujayra, nasl*), malay (*agar-agar*) kabi boshqa tillardan ham o'zlashmalar kuzatildi. Ularning turli lisoniy qatlamlar orqali o'zbek tiliga kirib kelishi milliy terminologiyada ko'p qatlamli, xalqaro darajada tushunarli ilmiy makon shakllanishiga imkon yaratadi.

Mazkur bobning navbatdagi ***“Ingliz va o'zbek tillarida biotexnologiya terminlarining kognitiv-kategoriyaviy tasnifi va freym modeli”*** deb nomlangan faslida biotexnologiyaga oid terminlarning konseptual kategoriyalari aniqlanib, freym modeli asosida tizimlashtirilgan.

Ma'lumki, “kategoriya” tushunchasi o'ta keng ma'noda talqin qilinadi va unda voqelik predmet-hodisalarning eng umumiy va muhim sifatlari, xususiyatlari, aloqalari va munosabatlari o'z aksini topadi²⁶. Terminologiyada kategoriyalash mental kategoriyalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, u ilmiy bilishning natijasi ham, uni shakllantirish vositasi ham sanaladi. Kategoriyalar voqelik hodisalarining umumlashtirilgan modeli, kategoriyalash esa bu umumlashtirishni aks ettiruvchi konseptual-lingvistik jarayon sifatida qaraladi.

Biotexnologiyaga oid terminlarni kategoriyalash jarayoni tadqiqotimizda E.Roschning prototip nazariyasiga²⁷ tayangan holda izohlandi. Mazkur nazariya doirasida kategoriya qat'iy chegaralangan struktura emas, balki markazida eng tipik a'zolar (prototiplar), periferiyasida esa kamroq tipik vakillar joylashgan tizim sifatida talqin qilinadi. Prototiplar kategoriyaning kognitiv markazini tashkil etib, boshqa terminlar ular bilan semantik va funksional umumiylik asosida bog'lanadi. Masalan, *“biologik obyektlar”* kategoriyasining *markazida cell (hujayra), gene (gen), protein (oqsil)* kabi bazaviy terminlar prototip sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida biotexnologiyaga oid 1200 ga yaqin termin tahlil qilinib, ular 11 ta konseptual kategoriya – *biologik obyektlar, moddalar, jarayonlar, xususiyatlar, makon, texnologiya, apparatura, qiymatlar va o'lchov birliklari, mahsulotlar, fan va sanoat tarmoqlari hamda ijrochilar* – bo'yicha tizimlashtirildi.

Tahlil natijalariga ko'ra terminologik maydonning asosiy qismini *“biologik obyektlar”* kategoriyasi ingliz tilida 25,2%, o'zbek tilida 24%ni egallaydi. Shuningdek, terminlarning sezilarli qismi *“moddalar”* (12,2 % / 16 %) va *“jarayonlar”* (12,1 % / 14 %) kategoriyalariga to'g'ri keladi. *“Mahsulotlar”* (10,2 % / 9,5 %) kategoriyasi ham har ikki tilda biotexnologik leksikaning muhim qismini tashkil etadi.

Biotexnologiya terminologiyasining kognitiv asoslarini aniqlash maqsadida freym modellashtirish yondashuvini qo'llab tadqiqotlar olib bordik va olingan natijalar asosida *“Biotexnologiya”* freymi ishlab chiqildi. Ushbu model terminlarning mazmuniy tuzilishini ochish, ular o'rtasidagi semantik-iyerarxik munosabatlarni tartibga solish imkonini berdi. Freym tarkibida to'rt asosiy subfreym ajratildi: *“Research Area/Tadqiqot sohasi”*, *“Subjects/Subyektlar”*, *“Processes and Methods/Jarayon va metodlar”* hamda *“Objects/Obyektlar”*. Har bir subfreym

²⁶ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах: Сангзор нашриёти, 2006. -Б.14

²⁷ Rosch, E. Principles of Categorization // Cognition and Categorization / Eds. E. Rosch, B. Lloyd. – Hillsdale: Lawrence Erlbaum, 1978. – P. 27–48.

tegishli terminlar guruhini birlashtirib, biotexnologiya konseptosferasining alohida semantik qatlamlarini aks ettiradi. “*Research Area*” biotexnologiyaning ilmiy-amaliy yo‘nalishlarini, “*Subjects*” soha subyektlari – mutaxassis va tashkilotlarni, “*Processes and Methods*” biologik hamda texnologik jarayonlarni, “*Objects*” esa boshlang‘ich obyektlar va natijaviy mahsulotlarni ifodalovchi terminlarni qamrab olishi aniqlandi.

Ingliz va o‘zbek tillarida biotexnologiya terminlari freymi to‘rt asosiy subfreym asosida chog‘ishtirildi. Mazkur subfreymning konseptual tuzilishi har ikki tilda umumiy bo‘lsa-da, morfologik ifodasi, yasaliş modellari va struktur shaklida sezilarli farqlar mavjud. Ingliz tili analitik tuzilishga ega bo‘lib, affikslar yordaamida yasalgan va qisqartmalarga boy terminlar ustunlik qilsa, o‘zbek tilida esa o‘zlashmalar va atributiv birikmalar faol qo‘llaniladi. Har ikki til terminologiyasida biologik obyektlar markaziy konsept sifatida namoyon bo‘ladi, jarayon va metod terminlari esa ilmiy-amaliy faoliyatning kognitiv modellari sifatida shakllangan. Yuqorida berilgan kategoriyalar biotexnologiya terminologiyasida terminlarni tizimlashtirish, ularning sohaga mansubligini aniqlash, mazmunini izohlash va obyekt–jarayon munosabatlarini belgilashga xizmat qiladi. Freymli modellashtirish esa ushbu kategoriyalarni yagona konseptual tizimga birlashtirib, terminlar o‘rtasidagi ierarxik va semantik bog‘lanishlarni aniq ko‘rsatib beradi.

Bobning uchinchi fasli “*Metaforizatsiya biotexnologiyaga oid terminlar shakllanishining kognitiv mexanizmi sifatida*” deb nomlanib, unda biotexnologiya terminlarining shakllanishida metaforizatsiyaning o‘rni, konseptual metafora nazariyasi, hamda metaforaning nafaqat nominativ vosita, balki ilmiy bilishning muhim kognitiv mexanizmi ekanligi yoritilgan.

Metaforizatsiya biotexnologiya terminologiyasida murakkab biologik va molekulyar jarayonlarni inson tajribasiga yaqin konseptual modellar orqali anglash va nomlash imkonini beruvchi muhim kognitiv mexanizm hisoblanadi. U yangi ilmiy tushunchalarni mavjud leksik birliklar asosida ma‘no ko‘chishi yo‘li bilan ifodalab, abstrakt hodisalarni vizuallashtirish, tizimlashtirish hamda ilmiy muomalaga kiritishni ta‘minlaydi. Mazkur jarayonning ichki mexanizmi E. A. Lapina²⁸ tomonidan bosqichma-bosqich kechadigan kognitiv faoliyat sifatida izohlangan. Unga ko‘ra, dastlab nominatsiya qilinayotgan obyekt yoki hodisaning eng muhim belgisi ajratib olinadi va mazkur belgi bilan semantik jihatdan yaqin bo‘lgan umumtil birligi tanlanadi. Keyingi bosqichda tanlangan birlikning ma‘nosi obyekt mohiyatiga muvofiq ravishda qayta talqin qilinib, semantik jihatdan mustahkamlanadi.

Mazkur tadqiqot doirasida ma‘lum manba sohaga oid leksemaning metaforik qayta talqini natijasida biotexnologik terminologik tizimga integratsiyalashgan metaforik birliklar tahlilga tortildi. Biotexnologiya terminlari shakllanishida metaforizatsiya markaziy kognitiv mexanizm ekanini ko‘rsatdi, bunda ma‘no manba sohadan → maqsad sohaga ko‘chadi. Biotexnologiya sohasi terminlari tarkibidagi metaforik birliklar asosan quyidagi to‘rtta manba sohasiga mansubligi aniqlandi: **Inson dunyosi** (*mother plant – ona o‘simlik, daughter cells – qiz hujayralari,*

²⁸ Лапина Е.А. Метафоризация как способ терминообразования в микроэлектронике: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 1986. – С.9.

multigene family – multigen oilasi, *competent cell* –kompetent hujayra, *DNA fingerprint* – DNK barmoq izi, *reporter gene* – reportyor gen, *messenger RNA* – xabarchi RNK); **Texnika va predmetlar dunyosi** (*gene shears*–gen qaychi, *replication fork*–replikatsiya vilkasi, *sieve cell*–elak hujayrasi, *cell wall*–hujayra devori, *gene bank*–gen banki); **Tabiat hodisalari va jismlari dunyosi** (*gene flow* – gen oqimi, *genetic drift* – genetik drift (*siljish*), *phylogenetic tree* – filogenetik daraxt, *genomic island* – genom oroli, *epidemic wave* – epidemik to‘lqin) va **Harbiy soha** (*killer cell*–qotil hujayra, *gene gun*–gen quroli, *target cell*–nishon-hujayra, *microprojectile bombardment* –mikro-snaryadlar bilan ombardimon qilish, *antibiotic attack*–antibiotik hujumi).

Biotexnologiya tarmoqlarini konseptual farqlashda rang nomlariga asoslangan metaforik tizim faol qo‘llanadi. P.Kafarski taklif etgan rang modeli²⁹ bo‘yicha: *White biotechnology* (*Oq biotexnologiya*) – sanoat jarayonlari, *Red biotechnology* (*Qizil biotexnologiya*) – tibbiy jarayonlarda qo‘llaniladigan biotexnologiya, *Green biotechnology* (*Yashil biotexnologiya*) – qishloq xo‘jaligi jarayonlarida qo‘llaniladigan biotexnologiya, *Blue biotechnology* (*Moviy biotexnologiya*) – suv va okean) – dengiz ekotizimlari va *Yellow biotechnology* (*Sariq biotexnologiya*) –ozuq-ovqat biotexnologiyasiga ajratiladi. Rang metaforalari biotexnologiyaning ko‘p tarmoqliligini ifodalovchi va tizimlashtiruvchi konseptual marker sifatida xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot doirasida aniqlangan biotexnologiya terminologiyasida keng qo‘llanadigan konseptual metaforalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, sohada ilmiy tushunchalar ko‘pincha inson tajribasiga yaqin manba sohalar orqali konseptuallashtiriladi. Eng faol modellardan biri CELL IS A HUMAN/HUJAYRA – INSON metaforasidir. Ushbu modelda hujayra inson kabi idrok etuvchi va harakat qiluvchi subyekt sifatida talqin qilinadi: *cell suicide*, *cell communication*, *cell defense*, *killer cells* kabi terminlar aynan shu antropomorf xaritalashning namunasidir. Ingliz tilidagi *sniffing other cells*, *shaking hands*, *stressed-out cell* kabi birliklar hujayraga ijtimoiy va hissiy fazilat yuklaydi; o‘zbek ilmiy nutqida esa jarayonlar ko‘proq neytral: *o‘zaro aloqa qiladi*, *signal qabul qiladi*, *rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi*.Ikkinchi keng tarqalgan model – CELL IS A FACTORY/HUJAYRA – ZAVOD – metaforasidir. Ingliz tilidagi *chemical factory*, *cellular machinery*, *producing biological products*, *repairing damage* kabi birliklar hujayrani murakkab texnologik tizim sifatida ko‘rsatadi. O‘zbek tilida ham “oqsil sintezi”, “energiya ishlab chiqarish” kabi ifodalar mavjud bo‘lsa-da, texnologik metaforizatsiya darajasi ancha cheklangan.

Gen termini bilan bog‘liq metaforalar orasida GENES ARE INFORMATION / GENLAR – AXBOROT hamda GENES ARE PROGRAMS / SOFTWARE / GENLAR–DASTUR modellari ajralib turadi. Ingliz tilidagi *misspelling in genes*, *detect and fix mutation*, *encoded information* kabi birliklar genlarni matn yoki kod sifatida talqin qiladi. O‘zbek tilida esa ushbu model “*genni o‘chirish*”, “*gen kiritish*” kabi neytral texnik birliklar orqali ifodalanib, metaforaning emotsional komponenti

²⁹ Kafarski P. Rainbow code of biotechnology. - Chemik 2012. -P. 6.

nisbatan sustligi kuzatildi.

DNK ning konseptuallashuviga doir DNA IS A TEXT / DNK – MATN metaforasi *genetic alphabet, spelling mistakes, write/read DNA* kabi terminlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida bu jarayon asosan texnik tusda: *DNKni tahrirlash, gen kiritish, genni o‘chirish*. Shuningdek, DNA IS A DATABASE / DNK –MA’LUMOTLAR BAZASI modeli ingliz tilida *robust storage medium, long-term data retention* kabi birliklar orqali, o‘zbek tilida esa *DNK nasliy informatsiya xazinasi* kabi iboralar orqali ifodalanadi.

PATHOGENS ARE ENEMIES/ATTACKERS / PATOGENLAR – DUSHMANLAR/BOSQINCHILAR modeli biotexnologiya diskursining markaziy metaforalaridan biridir. Ingliz tilida *invading pathogen, pathogen attack, hijacks the cellular processes, immune surveillance* kabi birliklar patogenlarni *dushman, bosqinchi* sifatida talqin qiladi. O‘zbek tilida ham: *virus hujum qilganda, kurash, ayyor viruslar, himoyalanih* kabi birliklar harbiy xaritalashni saqlagan holda, tasviriy ifoda bilan namoyon bo‘ladi.

Ingliz va o‘zbek tillarining chog‘ishtirma tahlili shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida metaforalar ilmiy nutqning standartlashgan komponenti sifatida faol qo‘llanadi, o‘zbek tilida esa ular ko‘proq kontekstual, tasviriy va funksional shakllarda namoyon bo‘ladi. Har ikki tildagi metaforik birliklarning voqelanish darajasi farq qilsa-da, metaforaning asosiy vazifasi saqlanib qoladi.

XULOSA

1. Terminologiya zamonaviy tilshunoslikning fanlararo yoʻnalishi boʻlib, maxsus sohalardagi ilmiy tushunchalarni ifodalovchi terminlar tizimini, ularning shakllanishi, tizimlashuvi hamda umumisteʼmol leksikasi bilan munosabatini oʻrganadi va ilmiy muloqotning aniqligi hamda standartligini taʼminlaydi. Shu nuqtayi nazardan, kognitiv yondashuv terminlarni konseptualizatsiya, kategoriyalash, freym modellashtirish va metaforizatsiya jarayonlarida shakllanadigan kognitiv birlik sifatida talqin qilib, ingliz va oʻzbek tillaridagi biotexnologiya terminlarining mazmuni hamda tarjimasini tahlil qilish uchun mustahkam nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

2. Biotexnologiya terminologiyasining shakllanishi ekstralingvistik (fanlararo integratsiya, yangi texnologiyalar va ilmiy kashfiyotlar) hamda lingvistik omillar (kalkalash, oʻzlashma terminlar, abbreviatsiya, derivatsiya va tarjima) taʼsirida kechadigan dinamik jarayon boʻlib, sohaning geterogen terminologik tizimini shakllantiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Ushbu jarayon qadimgi, klassik va zamonaviy biotexnologiya davrlarida rivojlanib, biologiya, genetika, mikrobiologiya, tibbiyot, kimyo, muhandislik va axborot texnologiyalari kabi fanlar kesishmasida koʻp manbali va murakkab tizim sifatida namoyon boʻladi.

3. Ingliz va oʻzbek tillarida biotexnologiya terminlarining tuzilishida tub, affiksial va kompozit modellar qoʻllansa-da, eng ustun qatlamni aynan koʻp komponentli atamalar tashkil etadi, ilmiy mazmunning murakkabligi sabab sintaktik shakldagi birliklar va ularning qisqartma variantlari ikki tilda ham keng qoʻllaniladi. Ingliz tilida blending va konversiya kabi soʻz yasash usullari faol boʻlsa, oʻzbek tilida bunday modellar deyarli uchramaydi, yangi terminlar asosan sintaktik birliklar, kalkalash va oʻzlashma orqali shakllanadi.

4. Biotexnologiya terminlarining sinonimiya, antonimiya, polisemiya hamda giper-giponimik munosabatlar asosida shakllanishi terminologik tizimning paradigmatic yaxlitligini taʼminlaydi.

5. Ingliz tili biotexnologiya terminologiyasida eponimlar barqaror va meʼyorlashgan tizim sifatida shakllangan boʻlib, ularning yasashida affiksatsiya, semantik kengayish va konversiya kabi modellar faol qoʻllaniladi. Oʻzbek tilida esa eponimlar asosan oʻzlashma shaklida va baʼzan variantlilikni namoyon etadi, yangi eponim birliklar esa odatda kalkalash yoki moslashtirish orqali shakllanadi. Eponimlar kelib chiqish manbalariga koʻra antroponimlar, toponimlar, brend yoki kompaniya nomlari hamda mifologik nomlarga asoslangan guruhlarga boʻlinadi.

6. Ingliz tilidan oʻzbek tiliga biotexnologiya terminlarining oʻzlashuvi fonetik-morfologik moslashuv, konseptual talqin va semantik integratsiyani oʻz ichiga olgan murakkab kognitiv jarayon boʻlib oʻzbek ilmiy nutqida yangi terminologik paradigmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

7. Biotexnologiya terminlari prototip nazariyasi asosida 11 ta konseptual kategoriya (*makon, moddalar, biologik obyektlar, xususiyatlar, jarayonlar, qiymatlar va oʻlchov birliklari, texnologiya, jihoz, mahsulotlar, fan va sanoat tarmoqlari hamda ijrochilar*)ga ajratildi: bunda tizim markazida “*biologik obyektlar*”

kategoriasi asosiy o‘rinni egallab, “*jarayonlar*”, “*texnologiyalar*”, “*xususiyatlar*”, “*moddalar va mahsulotlar*” kabi kategoriyalar periferiyada joylashadi.

8. Freym–subfreym–slot tamoyiliga asoslanib “*Biotexnologiya*” freymi ishlab chiqildi va u tadqiqot sohasi, subyektlar, jarayonlar, metodlar hamda obyektlarning o‘zaro bog‘langan konseptual tuzilmasini aks ettiradi. Ushbu model biotexnologik terminlarning ichki tizimi, ularning ilmiy va funksional munosabatlari bir butun konseptual makonda qanday tartiblanishini ko‘rsatuvchi universal kognitiv tuzilma sifatida baholandi.

9. Biotexnologiya terminologiyasida metaforizatsiya murakkab ilmiy tushunchalarni inson ongiga tanish konseptlar orqali tushuntirishga xizmat qiladi. Metaforik birliklar asosan *inson dunyosi, texnika va predmetlar, tabiat hodisalari va jismlari* hamda *harbiy konseptlar* kabi to‘rtta manba soha asosida shakllanib, biotexnologik terminlarning motivatsiyasi, semantik aniqligi va konseptual tuzilishini belgilaydi.

10. Ingliz va o‘zbek tillarining biotexnologik diskursida metaforalar umumiy konseptual modellar asosida shakllansa-da, ularning lisoniy voqelanish darajasi farq qiladi: ingliz tilida ular terminologiyaning barqaror va me‘yorlashgan elementi sifatida qo‘llansa, o‘zbek tilida ko‘proq kontekstga bog‘liq va funksional shaklda namoyon bo‘ladi. Shunga qaramay, har ikki tilda ham metaforizatsiya biotexnologik bilimlarni konseptuallashtirish va ilmiy tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni yoritishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 AT URGENCH STATE UNIVERSITY
NAMED AFTER ABU RAYHAN BIRUNI**

**NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO
ULUGBEK**

ADAMBAEVA FERUZA RUSTAMBEKOVNA

**STRUCTURAL-SEMANTIC AND COGNITIVE PROPERTIES OF
BIOTECHNOLOGY TERMS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

10.00.06 – Comparative Literature, Contrastive Linguistics and Translation Studies

**DISSERTATION ABSTRACT
of the doctor of philosophy (PhD) in philological sciences**

Urgench – 2026

The theme of the dissertation for doctor of philosophy (PhD) was registered under the number B2025.2.PhD/Fil2515 at the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Supreme Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

The dissertation has been prepared at the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English and Russian (resume)) on the Scientific Council official website (www.urdu.uz) and on the information-educational portal "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Scientific Supervisor: Sadullayeva Nilufar Azimovna
doctor of philological sciences, professor

Official Opponents: Jamila Ismailovna Ermetova
candidate of philological sciences,
associate professor

Abdi Eshonqulovich Mamatov
doctor of philological sciences, professor

Leading Organization: Bukhara State University

The Defense of the dissertation will take place on "30" April 2026, at 9:00 at the meeting of the Scientific Council PhD.03/2025.27.12.Fil.06.05 at Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni. (Address: 220100, Urgench city, str. Hamid Olimjon, 14. Phone: (+99862) 224-67-00; fax: (+99862) 224-67-00; e-mail: info@urdu.uz)

The dissertation can be reviewed at the Information Resource Center of Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni (registered under No. D-974 Address: 220100, Urgench city, H. Olimjon street, 14. Phone: (+99862) 224-67-00); e-mail: arm@urdu.uz.

The abstract of the dissertation was distributed on "13" April 2026.
(Register protocol No. 86 on "13" April 2026).



D.Q.Gayipov
Chairman of the Scientific Council
awarding scientific degrees, Doctor of
Science in Philology (DSc), Professor

S.S.Atajanov
Scientific Secretary of the Scientific
Council awarding scientific degrees,
Doctor of Philosophy in Philology
(PhD), Associate Professor

A.I.Primov
Chairman of the Scientific Seminar at
the Scientific Council awarding
Scientific degrees, Doctor of Science in
Philology (DSc), Professor

INTRODUCTION (abstract of PhD thesis)

The relevance and necessity of the dissertation topic. In world linguistics, on the basis of comparative studies, increasing attention is being paid to the study of the issues of describing biotechnology terms based on scientific criteria, defining thematic boundaries, systematization, and clarifying the norms of application. In particular, in studying the linguistic nature of biotechnology terms, along with the principles of traditional terminology, it is important to reveal the mechanisms of meaning formation based on a cognitive-semantic approach, and to identify linguistic and extralinguistic factors influencing the formation of terms.

In world linguistics, the comparative-typological analysis of biotechnology-related terms allows for identifying scientific-technological and social factors influencing their formation, as well as similarities and differences among terms in different languages. In particular, studying the scientific and theoretical foundations, structural-semantic and cognitive properties of terms related to the field of biotechnology from a comparative-typological perspective, identifying the factors determining their occurrence, revealing the meaning and essence of complex, explanatory terms, and developing principles for their translation are among the promising areas of current terminological research.

In the context of globalization processes in our country, the importance of issues such as the study of biotechnology terminology, the formation of a clear and consistent interpretation of scientific concepts, the creation of a standardized terminology system, and the enrichment of the national terminology fund from the point of view of ensuring the integration of science, education, and production determines the need for research in this area. Regulating newly introduced terms entering from foreign languages, recommending alternative equivalents for practical use, adapting them on the basis of the internal resources of the Uzbek language, and developing methodologies for professional translation "...from the state language into foreign languages and from foreign languages into the state language"³⁰ constitute one of the priority tasks currently facing linguistics and translation studies. In this regard, the study of biotechnology-related terminology in English and Uzbek within the framework of comparative linguistics is of significant practical importance.

This research contributes, to a certain extent, to the implementation of the tasks outlined in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan: No. PD-5847 of October 8, 2019 "On Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030", No. PD-60 of January 28, 2022 "On the Development Strategy of the New Uzbekistan for 2022-2026", Resolution No. PR-4899 of November 25, 2020 "On Comprehensive Measures for the Development of Biotechnology and the Improvement of the System for Ensuring the Country's Biological Security", Resolution No. PR-5117 of May 19, 2021 "On Measures to bring the promotion of Foreign Language Learning in the Republic of

³⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 19 майдаги "Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги bosқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-5117-сон Қарори // <https://lex.uz/docs/5426736>

Uzbekistan to a Qualitatively New Level” as well as other regulatory legal documents related to this sphere of activity.

Compliance of the research with the priorities of the republic’s science and technology development. This research has been carried out in accordance with Priority Area I of the national priorities for the development of science and technology of the Republic, namely: “Formation and implementation of a system of innovative ideas for the social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational development of an information-oriented society and a democratic state”.

The level of study of the problem. In world linguistics, a number of studies have been conducted on the formation and structural-semantic features of terms. In particular, the theoretical foundations of terminology, the processes of term formation, their structural characteristics, issues of standardization and normalization, as well as principles of translation have been thoroughly examined from a scientific and theoretical perspective by such scholars as E. Wüster, H. Felber, J. C. Sager, P. Sandrini, S. E. Wright, G. Budin, M. T. Cabré, S. I. Landau, M. C. Baker, M. Fernández-Parra, D. S. Lotte, G. O. Vinokur, A. A. Reformatskiy, L. S. Barkhudarov, S. V. Grinev-Grinevich, and V. M. Leichik³¹.

In Uzbek linguistics, the scholarly works of A. Hojiev, H. Dadaboyev, S. Usmonov, R. Doniyorov, N. Qosimov, E. Begmatov, A. P. Madvaliyev, G. M. Ismailov, X. D. Paluanova, X. A. Sarimsakov³² and others have made a significant contribution to the development of the national terminological system.

The global standardization of biotechnology-related terminology is reflected in the “Glossary of Biotechnology and Genetic Engineering”³³ compiled by the Food

³¹ Wüster E. Internationale Sprachnormung in der Technik, besonders in der Elektrotechnik. – Bonn: Bouvier, 1970. – 507 p.; Felber H. Terminology Manual. – Paris: Unesco and Infoterm, 1984. – 426 p.; Sager J.C. Language engineering and translation: Consequences of automation. – Amsterdam, Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1994. – 345 p.; Sandrini P. Terminologiarbeit im Recht: Deskriptiver, begriffsorientierter Ansatz vom Standpunkt des Übersetzers. – Wien: Termnet, 1996. – 291 p.; Wright S.E., Budin G. Handbook of Terminology Management. – Amsterdam, Philadelphia: John Benjamins Publishing, 1997. – 370 p.; Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1999. – 260 p.; Landau S.I. Dictionaries: The Art and Craft of Lexicography. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 496 p.; Baker M.C. Case: Its Principles and Its Parameters. – Cambridge: 2015. – 336 p.; Fernández-Parra M. Terminology Management for Translators. – London: Routledge, Cambridge University Press, 2025. – 316 p.; Лотте Д. С. Основы построения научно-технической терминологии – Москва: 1961. – 158 с.; Vinokur G.O. The Russian Language: A Brief History. – Cambridge University Press, 2010. – 160 p.; 74. Реформатский А.А. Введение в языкознание: учебник для вузов. – Москва: Аспект-Пресс, 2001. – 536 с.; Бархударов Л.С. Язык и перевод. Вопросы общей и частной теории перевода. – Москва: 1975. – 238 с.; Гринев-Гринеvич С.В. Терминоведение. – Москва: Академия, 2008. – 304 с.; Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – Москва: 2009. – 256 с.;

³² Хожиев А. Термин танлаш мезонлари. – Тошкент: Фан, 1996. – 128 б.; Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019. – 117 b.; Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент, 1968. – 118 б.; Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 162 б.; Қосимов Н. Ўзбек тили илмий техникавий терминологияси масалалари. – Тошкент, 1985. – 124 б.; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985 – 201 б.; Мадвалиев А.П. Ўзбек тили изоҳли луғатларида сўзларга этимологик маълумот бериш масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2009. – №3. – Б. 35-43; Исмаилов Ғ.М. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. ф.ф.н. дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 26 б.; Paluanova X. Ingliz, o‘zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ekologik terminlarning derivatsion-semantik prinsiplari. f.f.d. diss... – Toshkent, 2016. – 230 b.; Sarimsokov X.A. Ingliz va o‘zbek tillaridagi sport sharhlari leksikasining lingvistik xususiyatlari. Avtoref. filol. fan. dok. diss... – Toshkent, 2024. – 61 b.

³³ Zaid A., Hughes H., Porceddu E., Nicolas F. Glossary of biotechnology and genetic engineering. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 1999. – 250p.

and Agriculture Organization of the United Nations (FAO), in which the scientific definitions of terms and their scope of application are clearly specified. Based on research conducted on a genetics corpus, G. Plappert³⁴ has explained the use of biotechnological units in scientific texts, their phraseological combinability, and their contextual adaptation.

